

**KO'CHMAS MULK ONLAYN SAVDOLARIDA ADVOKATNING
HUQUQIY MAQOMI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL**

Muhammad Narzullayev

narzullayevmf@gmail.com

Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti

Biznes huquqi yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulk onlayn savdolarida (E-auksion va davlat mulkini sotish platformalari) advokatning huquqiy maqomi kompleks nazariy-huquqiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy qonunchilik va xorijiy tajriba o'zaro taqqoslangan, "raqamli advokatura" (digital advocacy) yangi huquqiy institut sifatida asoslangan, huquqiy risklar doktrinal tasniflangan. Advokatning elektron muhitdagi vakolatlari, due diligence jarayoni, elektron raqamli imzo va kasbiy sir masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan. Tavsiya etilgan o'zgartirishlar "Advokatura to'g'risida"gi qonun, Fuqarolik kodeksi va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga kiritilishi lozim bo'lgan me'yorlarni o'z ichiga oladi.*

***Kalit so'zlar:** elektron onlayn-auksion, raqamli advokatura, E-auksion, ko'chmas mulk savdosi, elektron raqamli imzo, due diligence, huquqiy risk, advokat vakolatlari, davlat mulki, raqamli huquq.*

***Annotation:** The article presents a comprehensive theoretical and legal analysis of the legal status of an advocate in online real estate auctions (E-auction and state property sale platforms) in the Republic of Uzbekistan. National legislation and foreign experience are compared, the concept of "digital advocacy" as a new legal institution is substantiated, and legal risks are doctrinally classified. The author analyzes the powers of an advocate in an*

electronic environment, due diligence procedures, electronic digital signatures, and professional privilege issues. Based on the research, specific proposals for improving legislation are developed.

Keywords: *electronic online auction, digital advocacy, E-auction, real estate trade, electronic digital signature, due diligence, legal risk, advocate's powers, state property, digital law.*

Аннотация: *В статье представлен комплексный теоретико-правовой анализ правового статуса адвоката на онлайн-торгах недвижимости (E-auction и платформы продажи государственного имущества) в Республике Узбекистан. Сопоставлено национальное законодательство и зарубежный опыт, обоснована концепция “цифровой адвокатуры” как нового правового института, произведена доктринальная классификация правовых рисков. Автор анализирует полномочия адвоката в электронной среде, процедуры due diligence, вопросы электронной цифровой подписи и профессиональной тайны. На основе исследования разработаны конкретные предложения по совершенствованию законодательства. Рекомендуемые изменения включают нормы, которые должны быть внесены в Закон “Об адвокатуре”, Гражданский кодекс и постановления Кабинета Министров.*

Ключевые слова: *электронный онлайн-аукцион, цифровая адвокатура, E-auction, продажа недвижимости, электронная цифровая подпись, due diligence, правовой риск, полномочия адвоката, государственное имущество, цифровое право.*

1. Kirish

Ko'chmas mulk onlayn savdolari O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida muhim yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Prezidentning 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3149-son qarori asosida tashkil etilgan E-auksion elektron savdo platformasi (e-auksion.uz) va 2023-yilda faoliyatini boshlagan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining platformasi (davaktiv.uz) davlat va xususiy ko'chmas mulk savdolarining asosiy vositasiga aylangan. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, E-auksion platformasida yiliga o'n minglab savdolar o'tkaziladi, ularning jami qiymati milliardlab so'mni tashkil etadi.

Shu bilan birga, mazkur raqamli transformatsiya jarayonida advokat institutining roli va uning huquqiy maqomi bo'yicha qator nazariy va amaliy muammolar mavjud. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida advokatning elektron savdolardagi faoliyati alohida me'yoriy hujjatlarda tartibga solinmagan. "Advokatura to'g'risida"gi qonun (1996) asosan an'anaviy advokat faoliyatini tartibga solgani, zamonaviy raqamli muhit talablariga to'liq javob bermaydi.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulk onlayn savdolarida advokatning huquqiy maqomini kompleks nazariy-huquqiy jihatdan tahlil qilish, aniqlangan muammolar asosida qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: (1) ko'chmas mulk onlayn savdolarining huquqiy tabiatini ochib berish; (2) advokatning raqamli muhitdagi vakolatlari va majburiyatlarini tahlil qilish; (3) huquqiy risklar tizimini tasniflash; (4) xorijiy tajribani taqqoslab o'rganish; (5) amaldagi qonunchilik va sud

amaliyotini baholash; (6) takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish.

2. Usullar va metodologiya

Tadqiqotda umumiy ilmiy va maxsus huquqiy tadqiqot usullari kompleks tarzda qo‘llanilgan. Umumiy ilmiy usullardan tizimli tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiyalash va konkretlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Maxsus huquqiy usullardan, birinchi navbatda, formal-huquqiy tahlil usuli qo‘llanilib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, "Advokatura to‘g‘risida"gi qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari chuqur o‘rganilgan. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida O‘zbekiston qonunchiligi Rossiya Federatsiyasi (FK 447-449-moddalar, 44-FZ, 229-FZ), Qozog‘iston, AQSh (UCC, E-SIGN Act 2000), Yevropa Ittifoqi (eIDAS Regulyatsiyasi 910/2014) qonunchiligi bilan taqqoslangan.

Tarixiy-huquqiy usul orqali savdolar institutining Rim huquqidan zamonaviy elektron auksionlargacha bo‘lgan rivojlanishi kuzatilgan. Sotsiologik-huquqiy usul E-auksion platformasining amaliy faoliyatini, sud amaliyotini o‘rganishda qo‘llangan. Ilmiy-nazariy manbalar bazasini o‘zbek (H.B. Boboyev, O.O. Oqyulov, Sh.M. Asyanov, R.S. Yashenko), rossiyalik (M.I. Braginskiy, V.V. Vitryanskiy, E.A. Suxanov) va g‘arb tadqiqotchilarining ishlari tashkil etadi.

3. Natijalar: ilmiy-nazariy tahlil

3.1. Ko‘chmas mulk onlayn savdosining huquqiy tabiati

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga muvofiq, ko‘chmas mulkka yer uchastkalari, yer osti boyliklari, alohida suv ob'ektlari, yerga mahkam bog‘langan narsalar kiradi. Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlar majburiy tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim (84-modda). Savdolar orqali shartnoma tuzish tartibi FK 379-380-moddalari bilan belgilanadi.

Muallif tomonidan “ko‘chmas mulk elektron onlayn-savdosi” tushunchasining huquqiy-doktrinal ta'rifi ishlab chiqilgan: bu vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan elektron savdo platformasida, avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minot yordamida, masofadan turib, elektron raqamli imzo vositasida amalga oshiriladigan, qatnashuvchilar tengligi, shaffoflik va raqobatbardoshlik tamoyillariga asoslangan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzish usulidir. Bu ta'rif elektron savdoning an'anaviy savdodan farqli xususiyatlarini qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotda savdolarning huquqiy tabiati bo‘yicha uchta nazariy yondashuv mavjud: (1) savdolar shartnoma tuzishning maxsus usuli; (2) savdolar fuqarolik-huquqiy faktlar tarkibi; (3) savdolar sui generis, ya'ni o‘ziga xos huquqiy institut. Uchinchi yondashuv onlayn savdolarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, eng maqbul nazariy asos sifatida qabul qilinishi mumkin, chunki u raqamli muhitning o‘ziga xos normalarini an'anaviy savdolar qoidalariga doirasiga sig‘diradi.

E.A. Suxanovning fundamental tadqiqotlari vaqt o‘tishi bilan savdolar institutining evolyutsiyasini kuzatishga imkon beradi: Rim huquqidagi “auction” tushunchasidan boshlab, klassik ingliz va Holland auksionlariga, keyin elektron raqamli savdolar gacha bo‘lgan huquqiy tabiat tadrijiy o‘zgarib borgan. M.I. Braginskiy va V.V. Vitryanskiylar savdolar huquqiy tabiatining oldi-sotdi shartnomasi qoidalariga va savdolarning maxsus protsedurasi qoidalariga bir

vaqtda bo‘ysunishini asoslab berganlar. Bu ikki tomonlilik elektron muhitda yangi masalalarni tug‘diradi, chunki raqamli platforma avtomatlashtirilgan jarayonlar orqali shartnoma tuzish usulini tubdan o‘zgartiradi.

3.2. Raqamli advokatura institutining huquqiy asoslari

Muallif tomonidan “raqamli advokatura” (digital advocacy) tushunchasi yangi huquqiy institut sifatida ilk bor tushuntirilgan. Raqamli advokatura — bu advokat tomonidan elektron muhit va raqamli texnologiyalar vositasida mijoz manfaatlarini himoya qilish faoliyati bo‘lib, u an’anaviy advokatura institutining zamonaviy transformatsiyasidir. Bu institutning o‘ziga xos belgilari: masofadan vakillik; elektron hujjatlar bilan ishlash; elektron raqamli imzo orqali tasdiqlash; real vaqtda onlayn savdoda qatnashish; platforma bilan elektron integratsion aloqa; elektron kasbiy sirni saqlash.

Prezidentning 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qarori bilan elektron advokat orderi va QR-kod orqali tekshirish mexanizmi joriy etildi. Biroq bu normativ asos E-auksion platformasida advokatning avtomatik tan olinishi, elektron imzo orqali savdoda vakillik qilishining texnik mexanizmini to‘liq qamrab olmaydi. Raqamli advokatura institutining keng ishlashi uchun qo‘shimcha qonunosti hujjatlari zarur.

Raqamli advokatura institutining huquqiy asoslari bir qancha darajalarda shakllanadi. Konstitutsiyaviy darajada — Konstitutsiyaning 41-moddasi mulk huquqini, 44-moddasi huquqiy yordam olish huquqini mustahkamlaydi. Kodifikatsiya darajasida — Fuqarolik kodeksi va FPK advokatning vakillik qilish umumiy huquqiy asoslarini belgilaydi. Maxsus qonun darajasida — “Advokatura to‘g‘risida”gi qonun advokat institutini tartibga soladi. Qonunosti hujjatlari SJIF: 5.051

darajasida — Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari amaliy masalalarni yoritadi. Ushbu piramidalar struktura raqamli advokaturaning huquqiy maqomini belgilashda samarali amal qiladi, biroq elektron muhit sharoitida yangicha yondashuvlar talab qilinadi.

Raqamli advokaturaning eng muhim qirrasini — bu texnologik komponent. Advokat nafaqat huquqiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi, balki zamonaviy raqamli vositalarni samarali qo'llash malakasiga ham ega bo'lishi kerak. Bunga elektron raqamli imzo bilan ishlash, bulutli hujjatlar tizimi, video-konferensiya texnologiyalari, elektron arxivlar, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash, kiberxavfsizlikning asosiy tamoyillari kiradi. O'zbekistonda advokatlarning raqamli savodxonligi darajasi hali yuqori emas, bu esa raqamli advokatura institutining to'liq rivojlanishini cheklaydi.

3.3. Advokatning onlayn savdolaridagi vakolatlari

Advokatning ko'chmas mulk onlayn savdolaridagi vakolatlari olti bosqichda tahlil qilinadi: (1) savdoga qadar tayyorgarlik — due diligence, hujjatlarni tekshirish; (2) ro'yxatdan o'tish — platformada mijoz nomidan ro'yxatdan o'tish, ERI masalalari; (3) savdo jarayoni — strategiya ishlab chiqish, narx takliflari; (4) shartnoma tuzish — oldi-sotdi shartnomasini huquqiy ekspertiza; (5) davlat ro'yxati — kadastrdan o'tkazish; (6) nizolarni hal qilish — sud vakilligi.

Due diligence jarayonida advokat beshta asosiy yo'nalishni chuqur tekshiradi: ob'ektning huquqiy maqomi; ob'ektga qo'yilgan yuklamalar (garov, arest, ijarachilar huquqlari); ob'ektning fizik holati; yer uchastkasi huquqlari; moliyaviy majburiyatlar. Due diligence natijalari huquqiy xulosa shaklida rasmiylashtiriladi va advokat professional mas'uliyatini belgilaydi.

3.4. Huquqiy risklar tasnifi

Tadqiqotda huquqiy risklarning yangi doktrinal tasnifi ishlab chiqilgan. Risklar ikki yirik toifaga bo‘linadi: obyektga tegishli risklar va jarayonga tegishli risklar.

Obyektga tegishli risklarga quyidagilar kiradi: mulkiy risklar (mulk huquqining shubha ostida bo‘lishi); yuklamalar risklari (garov, arest, servitut); texnik risklar (binoning holati); yer risklari (chegaralar, maqsadli foydalanish); moliyaviy risklar (kommunal qarzlari, soliqlar).

Jarayonga tegishli risklarga quyidagilar kiradi: platforma texnik nosozliklari; protsessual qoidabuzarliklar; sud va huquqiy nizolar; kiberxavfsizlik muammolari (ERI o‘g‘rilash, hackerlik); manfaatlar to‘qnashuvi va insofsiz ishtirokchilar xatti-harakatlari. Har bir risk turi o‘ziga xos oldini olish mexanizmlarini talab qiladi.

3.5. Xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida ko‘chmas mulk savdolari FK 447-449-moddalar, 2013-yilgi 44-FZ-son Federal qonun va 2007-yilgi 229-FZ (ijro ishlari) bilan tartibga solinadi. Asosiy platformalar Sberbank-AST, RTS-Tender, ETP-MSP. Rossiya tajribasi O‘zbekiston uchun ayniqsa foydali, chunki huquqiy tizimlar yaqin. Qozog‘iston “Elektron hujjat va elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi qonuni (2003) keng qo‘llaniladi.

AQSh qonunchiligi UCC (Uniform Commercial Code) va E-SIGN Act 2000 (Electronic Signatures in Global and National Commerce Act) asosida tuzilgan. Davlat mulki GovDeals.com va PublicSurplus.com platformalari orqali sotiladi.

Yevropa Ittifoqida eIDAS Regulyatsiyasi (910/2014) elektron imzolar, elektron identifikatsiya va ishonch xizmatlarini yagona standartlashtiradi. UNCITRAL Elektron imzo (2001) va Elektron tijorat (1996) Model qonunlari xalqaro standart sifatida ahamiyat kasb etadi.

Qiyosiy tahlilda bir qator muhim farqlar aniqlanadi. Birinchidan, elektron raqamli imzoning huquqiy maqomi bo'yicha: YI eIDAS Regulyatsiyasi ERI ning uch turini (oddiy, rivojlangan, kvalifikatsiyali) ajratadi, O'zbekistonda esa bunday tabaqalash to'liq yo'q. Ikkinchidan, platformalarning javobgarligi bo'yicha: Rossiya Federatsiyasida platforma operatorlari keng javobgarlikka ega bo'lib, texnik nosozlik holatlarida zararni qoplash majburiyati aniq belgilangan. Uchinchidan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha: YI GDPR talablari elektron savdolar sohasida ham qo'llaniladi; O'zbekistonda bu sohadagi qonunchilik rivojlanayotgan bosqichda.

AQSh amaliyotining o'ziga xos xususiyati shtatlarning mustaqilligi va Uniform Commercial Code (UCC) orqali yagona tijorat tartibini yaratish. Har bir shtat davlat mulkini sotish uchun o'z platformasini tanlaydi, biroq federal darajada UCC va E-SIGN Act umumiy standartlarni belgilaydi. Bu yondashuv markazlashgan tizimning egiluvchanligi va mahalliy sharoitlarga moslashish imkonini yaratadi, lekin ayni vaqtda huquqiy xilma-xillikka olib keladi.

Yevropa tajribasida har bir mamlakatning milliy platformasi eIDAS Regulyatsiyasi doirasida ishlaydi. Germaniyaning "bund.de", Fransiyaning "lace.marches-publics.gouv.fr", Italiyaning "consip.it" platformalari yagona texnik va huquqiy standartlar asosida qurilgan. Bu model O'zbekiston va boshqa MDH mamlakatlari uchun ham tavsiya etish mumkin: yagona mintaqaviy standart va har

mamlakatning o‘z platformasi — bu shaklda chegara oshirib amalga oshiriladigan savdolar ham samarali hal qilinadi.

Eng muhim xulosa shuki, xorijiy tajribaning asosiy yutuqlaridan biri — bu elektron savdolar sohasida maxsus sud organlari, mediatorlar va ombudsmanlarning faoliyat yuritishi. AQSh va YI mamlakatlarida ishtirokchilar o‘z huquqlarini himoya qilish uchun uzun va qimmat sud jarayonidan o‘tmasdan, maxsus apellyatsion tuzilmalarga murojaat qilishi mumkin. O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash institutsional mexanizmlarni joriy etish huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Muhokama: muammolar va takliflar

4.1. Aniqlangan muammolar

Tadqiqot natijalari asosida to‘rtta yirik muammoli yo‘nalish aniqlandi.

Birinchi, qonunchilikdagi huquqiy vakuum. “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunda raqamli muhit, elektron hujjat aylanishi, kiberxavfsizlik masalalari alohida tartibga solinmagan. Fuqarolik kodeksining savdolar bo‘yicha normalari elektron savdolarning o‘ziga xosligini hisobga olmaydi. Natijada amaliyotda qo‘llanilishida turli talqinlar va huquqiy noaniqlik yuzaga keladi.

Ikkinchi, institutsional tuzilmaning yetishmasligi. Elektron savdolar bo‘yicha maxsus nazorat va apellyatsiya organi yo‘q. Shikoyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga yuboriladi, bu vaqt va xarajatni oshiradi. Taqqoslash uchun: AQShda har shtat darajasida elektron savdolar bo‘yicha maxsus apellyatsion komissiyalar mavjud; YI mamlakatlarida bu funksiyani iste'molchi himoyasi va raqobat organlari bajaradi.

Uchinchi, texnik integratsiya yetishmasligi. E-auksion, Ko'chmas mulk kadastr, Sud reyestri, Soliq kodeksi axborot tizimi, Majburiy ijro byurosi ma'lumotlar bazalari bir-biri bilan to'liq integratsiya qilinmagan. Advokat due diligence jarayonida har bir manbaga alohida murojaat qilishga majbur, bu jarayonni sekinlashtirib, xatolik ehtimolini oshiradi.

To'rtinchi, sud amaliyotining yagonalashtirilmaganligi. Oliy sud Plenumining elektron savdolar bo'yicha maxsus qarori yo'q. Turli sudlar bir xil fakt holatida farqli qarorlar chiqaradi, natijada huquqiy barqarorlik susayadi.

4.2. Takomillashtirish bo'yicha takliflar

Aniqlangan muammolarni hal qilish uchun quyidagi tizimli takliflar ishlab chiqildi. Qonunchilik sohasida birinchi navbatda "Advokatura to'g'risida"gi qonunga 23¹-modda "Advokatning elektron savdolardagi vakolatlari" qo'shilishi lozim. Bunda advokatning platformada qatnashish, elektron hujjatlarga ERI qo'yish, platforma orqali vakillik qilish, elektron advokat so'rovi yuborish huquqlari aniq belgilanishi kerak. Shuningdek, 17-moddaga "elektron kasbiy sir" tushunchasi kiritilishi maqsadga muvofiq.

Fuqarolik kodeksining 379-moddasi elektron onlayn-auksionlar bo'yicha yangi qism bilan to'ldirilishi kerak. 488¹-modda sifatida "Ko'chmas mulkni elektron onlayn-auksion orqali sotish xususiyatlari" kiritilishi tavsiya etiladi.

Institusional tuzilma bo'yicha "Elektron savdolar bo'yicha apellyatsion komissiya" tashkil etish zarur. Komissiya mustaqil maqomga ega bo'lib, huquqshunoslar, texnik mutaxassislar, tadbirkorlar va iste'molchilar himoyasi bo'yicha vakillardan iborat bo'lishi kerak. Uning asosiy vazifasi — elektron

savdolar bo'yicha sudgacha shikoyatlarni ko'rib chiqish, qonunbuzarliklar bo'yicha choralar ko'rish.

Texnik jihatdan "Ko'chmas mulk kadastrisi" va "E-auksion" platformalari o'rtasidagi real vaqtdagi ma'lumotlar almashish tizimi yaratilsin. Bu maqsadda Vazirlar Mahkamasining alohida qarori qabul qilinib, ikkita davlat axborot tizimi o'rtasidagi integratsiya texnik va huquqiy asoslari belgilansin.

Sud amaliyotini yagonalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Elektron savdolar bo'yicha nizolarda qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi alohida qarori qabul qilinishi kerak. Unda savdolar natijalarini bekor qilish asoslari, texnik nosozliklarni isbotlash tartibi, elektron dalillarning sud jarayonida qabul qilinishi, platforma operatorining javobgarlik chegaralari yoritilishi lozim.

Professional tayyorgarlik sohasida Advokatlar palatasi qoshida "Elektron nizolarni hal qilish markazi" tashkil etilsin. Shuningdek, advokatlar uchun elektron savdolar sohasida majburiy malaka oshirish kurslari — har uch yilda kamida 40 soatlik o'quv dasturi — joriy qilinishi kerak.

4.3. Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchi marta "raqamli advokatura" (digital advocacy) tushunchasi yangi huquqiy institut sifatida asoslandi; ko'chmas mulk elektron onlayn-savdosining muallif tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy ta'rifi taklif etildi; huquqiy risklarning obyekt/jarayon bo'yicha doktrinal tasnifi ishlab chiqildi; "akseptning elektron tasdiqlanishi" va "raqamli kasbiy sir" kategoriyalari joriy etildi.

Amaliy ahamiyati qonunchilik ijodkorligi (Oliy Majlis palatalari, Prezident Administratsiyasi, Adliya vazirligi), Advokatlar palatasi faoliyati, sud amaliyoti va oliy yuridik ta'lim uchun maqolada bayon etilgan takliflar va tahlillardan foydalanish imkoniyatida ifodalanadi.

5. Xulosa

Ko'chmas mulk onlayn savdolarida advokatning huquqiy maqomi O'zbekistondagi raqamli transformatsiya sharoitida muhim va dolzarb masaladir. Tadqiqot ko'rsatdiki, amaldagi qonunchilik asosan an'anaviy advokatura institutini tartibga soladi va raqamli muhitning o'ziga xos talablarini to'liq hisobga olmaydi.

Tadqiqot natijasida "raqamli advokatura" yangi huquqiy institut sifatida nazariy jihatdan asoslandi. Huquqiy risklarning yangi tasnifi taklif etildi. Qonunchilikni takomillashtirish uchun "Advokatura to'g'risida"gi qonunga, Fuqarolik kodeksiga va Vazirlar Mahkamasi qarorlariga aniq o'zgartirishlar bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Institusional jihatdan apellyatsion komissiya va elektron nizolarni hal qilish markazi tashkil etish tavsiya qilindi.

Kelajakdagi tadqiqotlar blok-chain texnologiyalari, smart-kontraktlar, sun'iy intellektning elektron savdolarida qo'llanilishi hamda chegara oshirib amalga oshiriladigan elektron savdolaridagi advokat faoliyati yo'nalishlarida davom etishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri). — Toshkent: Adolat, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (2024-yil tahriri). — Toshkent: Adolat, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Advokatura to‘g‘risida"gi Qonuni. 1996-yil 27-dekabr, №349-I // Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida"gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr, №562-II // Lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3149-son qarori // Lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son qarori // Lex.uz.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori // Lex.uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 19-noyabrdagi 220-son qarori // Lex.uz.
9. Boboyev H.B. Fuqarolik huquqi: Umumiy qism. Darslik. — Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. — 487 b.
10. Oqyulov O.O. Fuqarolik-huquqiy shartnomalar nazariyasi. — Toshkent: Adolat, 2018. — 312 b.
11. Asyanov Sh.M. Onlayn savdolar huquqiy rejimining o‘ziga xos xususiyatlari // Advokat. — 2023. — №4. — B. 12-18.
12. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право. Книга вторая. — М.: Статут, 2011. — 780 с.
13. Суханов Е.А. Гражданское право: Учебник. В 4 т. Т. 3. — М.: Волтерс Клувер, 2008. — 528 с.

14. Гражданский кодекс Российской Федерации, часть первая. Статьи 447-449 // КонсультантПлюс.
15. Regulation (EU) No 910/2014 of the European Parliament and of the Council (eIDAS Regulation) // EUR-Lex.
16. Electronic Signatures in Global and National Commerce Act (E-SIGN Act), Pub.L. 106-229 (2000).
17. UNCITRAL Model Law on Electronic Signatures (2001) // United Nations Commission on International Trade Law.
18. E-auksion elektron savdo platformasi. — URL: <https://e-auksion.uz>
19. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. — URL: <https://davaktiv.uz>
20. Kim Y., Park J. Comparative Analysis of Electronic Auction Systems in Asian Countries // Asian Journal of Law and Technology. — 2022. — Vol. 15. — P. 125-142.